

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-12

## HALQ OG‘ZAKI IJODI NAMUNALARIDAN TARBIYALASH METODI

Buxoro Inovatsiyalar Universiteti  
2 –bosqich magistranti  
Teshayev Javohir Nurali O'g'li

**Annotatsiya:** Maqolada Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-ahloqiy qadriyatlar avlodu ajdodlarimizning qadim ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, urf-odatlari, an’analari, madaniyati, Halq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish on tili, tarixi badiiy falsafiy jihatdan o‘ziga xos tarzda aks ettiriladigan halq pedagogikasi nihoyatda boy va hilma-hilligi ko‘rsatilgan. Xalq pedagogikasi, halq og‘zaki ijodi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning manbai topishmoq, matal, qo‘sish, ertak, rivoyat kabilar yoshlarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishi haqida aytib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** xalq og‘zaki ijodi, ma’naviy-ahloqiy, rivoyat, doston, xalq ijodi, qadriyat, ertak, topishmoq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta’biri bilan aytganda, jamiyatda yuksak axloqiy–ma’naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy meros, tarixiy an’analarga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash respublikamizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omili hisoblanadi. Zero, mamlakat va xalqning taqdiri kelajagimiz vorisi bo‘lgan ana shu yoshlarning hayotga qay darajada tayyorgarligiga bog‘liq

O‘zbek folklorshunosligi ko‘p tarmoqli fan yo‘nalishi bo‘lib, hozirgi kunda uning eposshunoslik, ertakshunoslik, qo‘sishshunoslik, musiqa folklorshunosligi kabi bir qator fundamental tadqiqot yo‘nalishlariga ega. Shuningdek, hozirga qadar mifologiya va qadimgi davr folklori, o‘zbek folklorining tarixiy taraqqiyoti, marosim folklori, bolalar folklori, xalq lirikasi, folklor va yozma adabiyot munosabati, o‘zbek folklorining epik janrlar tizimi, xalq dostonchiligi, dostonchilik maktablari va ularning epik an’analari, turkiy xalqlar folklorining o‘zaro aloqalari va folklorda janrlararo munosabatlar, og‘zaki teatr va xalq tomosha san’ati, xalq musiqasi va an’anaviy raqs san’atini o‘rganishga doir qator tadqiqotlar silsilasi yuzaga kelgan. Halq og‘zaki ijodi-folklor termini inglizcha folk-halq va lore-donolik so’zlaridan yasalgan bo‘lib, xalq donishmandligi, donoligi, hunarmandligi,

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-12

san'atkorligi ma'nolarini anglatadi. Qadimgi ilk kishilar yozuvni bilmagan zamonlarda o'z fikrlarini og'zaki bayon etganlar. Shundan ularning og'zaki badiiy ijodi paydo bo'lgan. U o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan so'z san'ati bo'lib, uning barcha namunalari jonli ijro jarayonidagina yashaydi. Shuning uchun so'z va kuy omuxtaligi ustun bo'lsa, ayrimlarida sahna san'ati harakatlari ustun turadi. Folklor barcha san'at turlari ko'rinishlarini o'ziga mujassamlashtirgan. Folkloarning bir talay namunalari so'z va kuy uyg'unligida ijro etiladi. Doston va termalarni do'mbira jo'rligida kuylash an'anaviy bo'lsa, qo'shiqlar dutor va doira jo'rligida, chog'uchilar ansamblji jo'rligida kuylangan.

Boshqa bir folklor asarlarida so'z yetakchi o'rinni egallaydi. Ertak, afsona rivoyat, lof, naql, latifa, topishmoq va maqol janrlari shunday xarakterga ega. Folklor urug', qabila, elat yoki xalqning milliy og'zaki badiiy ijodiyoti bo'lib, o'sha qabila, urug', elat, xalq yoki millatning mafkurasi va psixologiyasini aks ettiradi. Unda voqyelikni ifodalashning doston, ertak, maqol, qo'shiq, lapar, topishmoq singari xilma-xil janrlari shakllangan. Xalq og'zaki badiiy ijodi asarlari uzoq muddatli ijodiy jarayonda, og'izdan-og'izga, avloddan avlodga, ustozdan shogirdga o'tib yuzaga keladi va yashaydi, ularning aniq bir muallifi noma'lumdir. Shuni aytish o'rinniki, folklor musiqa san'ati qadim zamonlarda jamoaning ommaviy ijodi sifatida yuzaga kelib, uning ilk namunalari jamoa ijrosiga mo'ljallangan. o'sha davrlarda yakka ijrochilar jamoa ijrochilaridan ajralib chiqmagan edi. Biroq davr o'tishi bilan, ijrochilik mahoratlari oshishi bilan jamoalar orasidan yakka ijrochilar ajralib chiqsa boshladilar.

Inson ongingin musaffoligi, jamiyatning yetukligi, shaxs ma'naviyat dunyosining boyligini ta'minlashda folklor musiqaning ahamiyati juda kattadir. Shuning uchun ham folklor musiqa san'atini o'rganish talabalarda milliy qadriyatlar hisoblanmish ming yillik tarixga ega bo'lgan urf-odatlar, udumlar, marosimlarimizga nisbatan mehr-muhabbat va hurmat uyg'otadi. Folklor musiqa san'ati, folklor etnografik ansamblari, xalq udumlari, urf-odatlar, mavsumiy marosimlar an'anaviyligi, turli-tuman hodisalarini tabiat hodisalariga ta'sir ko'rsatishiga intilishi bilan ijtimoiy hayotda katta o'rinn tutadi. Marosimlarni o'tkazish paytida ijro etiladigan qo'shiq va aytimlar marosimlar folklorini tashkil etadi. Ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan udum va marosimlarni halqqa olib chiqib, yana ularni zamonaviy talqinda namoiysh etishga folklor san'ati va uning tunganmas merosidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek folklori xilma-xil shakllardan tarkib topgan og'zaki so'z

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-12

san'ati bo'lib, o'zbek xalqining dunyoqarashi, badiiy zavqi, ijodiy salohiyati, orzu va intilishlarini aks ettiradi.

Folklor musiqa o'qitish metodikasi fanini o'rganish orqali talaba qadimiy urf-odatlarimiz, udumlarimiz, mehnat-marosim qo'shiqlari va kuylariga havas, milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalanadi va milliy musiqa san'atimizni chuqur, mukammal o'rganadi. Bolalar folklor qo'shiqlarini 20-asrning 20-yillari o'rtalaridataniqli rus folklorshunosi G.S. Vinogradov ilk bora fanga qo'llagan, 60-yillarga kelib o'zbek folklorshunosligi ham qo'llana boshlandi. Ota-bobolarimizdan avloddan-avlodga o'tib kelayotgan bolalar folklor qo'shiqlari o'yin va raqslarini kelajak avlodlarga etkazish bizning burchimizdir. Bolalar folklor qo'shiklarini toplash uni umumiyoq o'rta ta'lim maktablari musiqa darslarida qo'llash uchun ko'pgina olimlarimiztadqiqot ishlari olib bormoqda. Tadqiqot ishimizni Buxoro shahridan 8 km uzoqlikda joylashgan qishloqlardan biri Ko'chkumar qishlog'iiga olib mbordik, bu maskan odamlarinig mehmon do'stligi, shirin so'zligi, insonparvarligi, mevalarini shirinligiyu farzandlarinig bilimi

bilan Respublikaga tanilgan. 1930 yilda tug'ilgan 8 ta farzandning onasi 30 dan ziyod nevara evaraning buvisi Atoeva Maxfirat, u kishing qizlari 1955 yilda tug'ilgan Rustamova Muxlisa onaning aytishlaricha, bolani tarbiyalash va uni sir asrorlarini, bola ovutish va erkalatadigan qo'shiqlarni bolalikdan boshlab onalaridan o'rgangan ekanlar va bu qo'shiqlarni xozirgacha to'rtinchaviy avlodlari yoddan ijro etib kelmoqda. Bolalar folklor qo'shiklarini yoshi ulug' insonlardan o'rganib, bu qo'shiqlarni nota yozuviga olib va ijro yo'llarini yoshlarga o'rgatsak, bunday noyob asarlarni unitilib ketishini oldini olgan bo'lar edik. Har bir bola chaqaloqligidan boshlab mehr bilan aytilgan xalq qo'shiqlarni tinglab ulg'aysa kelajakda komil inson bo'lib etishadi. Buxoroda hozirga qadar bolalarni erkalab uni ovutish uchun ko'pgina qo'shiqlar ijrosi meros bo'lib kelmoqda va bu qo'shiqlarni o'ziga xos ijro metodlari bor, bular bolani tizzasiga qo'yib, havoga tashlab olib bolani kuldirib ijro etadigan qiziqmachoq, suyish, qiqillamalardan iborat. Bola tarbiyasida folklor kuy qo'shiqlari juda katta rol o'ynaydi, bu bolalar folklor o'yin qo'shiqlari, o'ziga xos xarakter hamda tarbiyaviy ahamiyatga ega.O'quvchilarini estetik tarbiyalashning shakl, vosita va usullari yordamida tashkil etishda musiqa o'qituvchilarining chuqur mutaxassislik bilimlari, shuningdek, yuksak kasbiy mahoratga ega bo'lishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq musiqa o'qituvchilarini faoliyatlari va tajribalarini o'rganish natijasida ma'lum bo'ldiki, ularning

**ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-12**

aksariyati mavrigi va taronalarini nazariy jihatdan etarli bilmaydilar, ularni ijro uslublarida kemtikliklar namoyon bo‘ldi.

Shuni hisobga olgan holda har bir o‘qituvchi oldiga murakkabroq vazifalar qo‘yishni nazarda tutib, ular bilan ma’lum ishlar ol borilgandan keyingi savollarga talab qilingan darajada bir qadar aniqroq javoblar bera boshladilar. Bu esa o‘quvchilar bilan o‘zbek musiqa folklori namunalarini o‘rgatish ustida alohida ish olib borish zarurligini ko‘rsatdi.

### **ADABIYOTLAR**

1. Mirziyoev. Sh. 2019 yil 29 apreldagi “O’zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konstepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5712-sod Farmoni.
2. Ibragimova M. – Oilada bolalarni ma’naviy ahloqiy tarbiyasida milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari. T. Avtoref. dis. ped fan. nom. 1998 yil 37 b.
3. Hikmataliev D. – O‘quv jarayonida o‘quvchilarning kasbiy madaniyatini milliy qadriyatlar asosida shakllantirish. Avtoref. dis. ped fan. nom. 2003 yil.
4. Ражабов, Т. И. (2020). Педагогические возможности использования детских фольклорных песен в духовно-нравственном воспитании младших школьников. Вестник науки и образования, (5-2 (83)), 34-37.
5. Раджабов, Т. И. (2019). Описание вековых ценностей в песне “тутовое дерево-балх” и его место в воспитании учащейся молодежи. In Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития (pp. 70-71).
6. Ражабов, Д. З., & Ражабов, Т. И. (2018). Формирование и развитие узбекской народной лирики. In Международная образовательная деятельность как фактор развития и сотрудничества высших учебных заведений в современном поликультурном мире (pp. 207-212).
7. Ражабов, Т. И. (2023). Совершенствование Механизма Духовно-Нравственного Формирования Учащихся Через Узбекские Народные Песни. Miasto Przyszłości, 33, 167-176.
8. Ражабов, Т. И. (2021). Ўкувчи-ёшларга ўзбек миллий мусиқа фольклори намуналари воситасида эстетик тарбия бериш. Science and Education, 2(11), 1094-1103.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-12

9. Тўхтасин, Р. И. (2022). ЎЗБЕК ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИ ВА ИЖРОЛАРИ ҲАҚИДА. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), (Special issue), 64-71.
10. Rajabov, T. I. The Mechanism of Teaching Uzbek Musical Folklore. Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN, 2795(546X),
11. Ражабов, Т. (2023). O 'zbek bolalar musiqiy o 'yin folklorining mavzuviy tasnifi. Общество и инновации, 4(5/S), 340-345.
12. Ражабов, Т. И. (2022). Совершенствование Механизма Духовно-Нравственного Формирования Учащихся Через Народные Музыки И Песни. Miasto Przyszlosci, 29, 363-367.
13. Rajabov, T. I. (2023). Distinctive Features of Folk Songs that Serve in the Spiritual and Moral Formation of Bukhara Pupils. Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress, 2(3), 59-68.
14. Rajabov, T. I. (2022). The role of bukhara folklore songs in youth education in the system of continuous education.
15. Rajabov, T. I. The Mechanism of Teaching Uzbek Musical Folklore. Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN, 2795(546X), 1
16. Rajabov, T. I. (2023). Distinctive Features of Folk Songs that Serve in the Spiritual and Moral Formation of Bukhara Pupils. Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress, 2(3), 59-68.
17. Madrimov, B. K., & Rajabov, T. I. (2022). Uzbek Ceremonial Folklore and its Characteristics. Nexus: Journal of Advances Studies of Engineering Science, 1(4), 53-56.
18. Rajabov, T. (2022). UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA O 'ZBEK MUSIQA FOLKLORINI O 'RGATISH DOLZARAB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(21), 21-31.
19. Ibodovich, T. R. (2022). PRACTICAL SITUATION OF TEACHING UZBEK MUSICAL FOLKLORE IN THE CONTINUOUS EDUCATION SYSTEM. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(6).
20. Ibodovich, R. T. (2021). EDUCATIONAL IMPORTANCE OF CHILDREN'S FOLKLORE SONGS IN MUSIC CULTURE CLASSES. Thematics Journal of Arts and Culture, 5(1).
21. Ibodovich, R. T. (2020). Aesthetic education of students through national values (on the example of bukhara children's folklore). European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8, 237-240.